
6 YOSHLI SHAXRIBONU XALQARO OLIMPIADADA ISHTIROK ETADI



O'quvchi-yoshlarning mantiqiy, ijodiy fikrlash, fotografik xotiralarini rivojlantirish va matematika faniga qiziqishlarini oshirishda mental arifmetika muhim ahamiyat kasb etadi.

Tumanimizda ham bunga alohida ahamiyat qaratilib, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mental arifmetika to'garaklari faoliyat yuritib turibdi.

Buning samarasini mental arifmetika olimpiadasida faxrli o'rinlarni egallayotgan yoshlarimiz misolida aytishimiz mumkin.



Jumladan, Istiqlol mahallasi hududida joylashgan "Istiqlol vorislari ONMTT rahbari Gulnozaxon Shodmonova rahbarlik qilayotgan muassasa tarbiyalanuvchisi Shaxribonu Asqaraliyeva mental arifmetikadan respublikada birinchi o'rinni egallab Dubayda bo'lib o'tadigan Xalqaro olimpiadaga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Shaxribonuni g'alaba bilan tabriklab, omad tilaymiz!

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-04-08 11:30:27